

## O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

### Andijon viloyat statistika boshqarmasi

#### 2018 yil yanvar-noyabr oyida viloyatda bajarilgan

#### QURILISH ISHLARI

##### **KO'RSATKICHLAR:**

*Qurilish-montaj ishlari  
hajmi – 2299,5 mlrd.so'm*

*Yirik qurilish-pudrat  
tashkilotlari ulushi – 3,5 foiz*

*Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi – 51,6  
foiz*

*Norasmiy sektorning ulushi  
– 44,9 foiz*

2018 yilning yanvar-noyabr oyi bo'yicha viloyatda 2299,5 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,8 foizni tashkil etdi hamda 2017 yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 5,3 foiz o'sdi.


Xususan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 79,7 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 120,1 foizni tashkil etdi.

Mazkur davrda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining o'sishi kuzatildi, ya'ni ular tomonidan 79,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati avvalgi yilga nisbatan 120,1 foizni tashkil etdi. Shu jumladan,

Andijon shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 44,7 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 101,9 foizni tashkil etdi.


Jalaququq tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 22,7 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 148,3 foizni tashkil etdi.

Ulug'nor tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 12,3 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 146,2 foizni tashkil etdi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 1186,7 mlrd. so'mni, tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,7 foizga teng bo'ldi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar.

## 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %da




## Iqtisodiy faoliyat bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so'm



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2237 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 107,1 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 foiz o'sdi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 62,5 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 72,5 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 foiz kamaydi.



Joriy davrda norasmiy sektorda jami 1033,1 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 105,0 foizni tashkil qildi. Qurilish ishlari hajmining baholash natijalariga ko'ra norasmiy sektordagi qurilish ishlari hajmidan 773,8 mlrd.so'm yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi, 196,3 mlrd.so'm aholi tomonidan qurilgan noturar bino-inshootlar va 63,0 mlrd.so'm aholi tomonidan amalga oshirilgan yakka tartibdagi ta'mirlash ishlari hissasiga to'g'ri keldi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

**Andijon viloyat statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

*Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37*